

ADABIYOT DARSLARIDA KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH

Abdujabbarova Marhabo Ilhomovna

Jizzax viloyati Jizzax shahar

10-umumta’lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Yan Amos Komenskiyning ta’kidlashicha, ”Mumkin bo‘lgan hamma narsa tuyg‘ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak”. Bola xotirasida nimadir o‘rnashib qolishini istagan pedagog imkoni boricha ko‘proq sezgi organlari:ko‘z,quloq,tovush,muskul harakatlari tuyg‘usi, hatto, mumkin bo‘lsa, hidlash va ta’im bilish ham eslab qolishda ishtirok etishi haqida qayg‘urishi kerak.

Adabiyot darslarida ko‘rgazmalilikning bir turi xarita-sxemalar bo‘lishi mumkin. Xususan, O‘rxun-Enasoy obidalari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Usmon Nosir, Abdulla Oripov kabi shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganishda bunday xarita-sxemalar o‘quvchiga yaqindan yordam beradi.

Boshlang‘ich sinfdanoq har bir o‘qituvchi mavzuni o‘quvchiga ochib berishda, uning so‘z boyligini o‘shida, albatta, turli xildagi ko‘rgazmalardan foydalanadi. Bundan tashqari berilgan rasmlar asosida o‘quvchilarda gap va matn tuza olish ko‘nikmalari ham shakllantirib boradi. Yuqori sinflarda esa bu jarayon ko‘pincha yozuvchi va shoirlar hayotini yoritishda ko‘proq qo‘l keladi. Masalan, O‘rxun-Enasoy obidalari haqida ma’lumot berganda bitiktoshlarning ko‘rinishini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, ular joylashgan hudud tasvirlangan geografik xaritalarni qo‘llash o‘quvchi ongida shu mavzu bilan bog‘liq ayrim savollarga yechim topgandek bo‘ladi. Bu jarayon orqali o‘qituvchi dars mazmunini hech ikkilanmay hikoya qilishi mumkin, chunki o‘quvchi ongida dastlabki ma’lumotlar qabul qilib bo‘linadi. Qolaversa, bu yo‘l bilan predmetlararo aloqaning o‘ziga xos tomonlariga ham ro‘para

kelinadiki, bu holat o‘quvchilarning turli sohadagi bilimlarini bir yerga jamlash, ulardan amalda foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Xarita-sxemalarning o‘ziga xos afzalligi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi darslikdan tashqari o‘ziga yaqin bo‘lgan, lekin darslikda yo‘q ma’lumotlar bilan uni boyitishi mumkin. Adabiyotshunos olimlarning fikricha, asarlarga chizilgan rasmlar, biografik materiallar, shu mavzuga oid gazeta va jurnallardan qirqib olingan parchalar, nodir va nashr etilmagan maktublar ham o‘quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

Yana bir holatni alohida ta’kidlash lozimki, darsda yoki mashg‘ulotlarda oq-qora tasvirlardan ko‘ra rangli rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarning turli yillarda nashr etilgan namunalari bu jihatdan bebaho manba va material bo‘la oladi. Yozuvchi va adiblarimizning turli davrlarda yaratilgan rangli rasmlari, portretlari, oilaviy yoki ijodiy davralardagi rangli fotosuratlar ham o‘quvchilar qiziqishiga mos va munosib bo‘ladi.

Ko‘rgazmalilikka pedagog olimlar katta baho berishadi. Ammo ko‘rgazmalilik ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi emas, balki asosiy maqsadga erishishning muhim vositasi hisoblanadi. Fan -texnika rivojlanib borayotgan bugungi kunda ta’lim tizimida ham an’anaviy ko‘rgazmalar qatoriga virtual ko‘rgazmalar tizimi ham kelib qo‘shilmoqda. Masalan, adabiyot darslarida qaysidir yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodi, asarlari o‘rganilmoqda. Mana shu mavzuga oid ma’lumotlarni esa biz internet tarmoqlaridan qidirish imkoniga egamiz. Chunki hozirgi kunga kelib ayrim yozuvchilarning saytlari paydo bo‘la boshladi. Jahonning ko‘zga ko‘ringan ijodkorlari to‘g‘risida internet saytlaridan talaygina ma’lumot olish mumkin.

O‘zbekistondagi qator saytlarda mana shunday imkoniyatlar mavjud. Biz saytlardan faqat o‘zbek yozuvchi, shoirlarinigina emas, balki jahon adabiyoti durdonalari haqida ham tegishli ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Oddiygina slaydlar yordamida ham ko‘rgazmalilikning o‘ziga xos shakli yuzaga keladi.

Kompyuter slaydlaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Fikr-mulohazalarni qisqa muddatda izchil tarzda bayon etish imkonini beradi;

- O‘quvchi ayni hodisani faqat eshitibgina qolmay uni o‘z ko‘zi bilan ham ko‘rib ham turadi;
- Ayni holatni bir necha variantlarda tavsiya etish imkoni yuzaga keladi;
- Unga qayta –qayta murojaat etish mumkin bo‘ladi.

Ko‘rish va eshitish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rgazmalilik o‘quvchidagi ijodiy tasavvurni faollashtirish bilan qo‘shilib sinfdagi adabiy asar tahliliga jiddiy ijodiy ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida esa o‘quvchi o‘zi o‘qigan narsasiga mustaqil munosabatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi hamda bu sohadagi bilimlarini mustahkamlaydi.

Kompyuter texnologiyasining afzalligi shundan iboratki, u o‘zida ko‘rgazmalilik tamoyilini uzluksiz tarzda mujassamlashtiradi. Bir o‘quv materialini qayta-qayta ishlatilishiga yo‘l ochadi, o‘quvchilar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘quvchilarda mustaqil va ijodiy ishlashga rag‘bat uyg‘otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Boqijon To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent-2010